

TIL KOMPETENSIYALARIDA GAPIRISH KO'NIKMASINING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rasulova Difuza Urinbayevna

Toshkent davlat agrar universiteti, "Xorijiy tillar" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya; Mazkur maqolada til kompetensiyalarining tarkibiy qismi sifatida gapirish ko'nikmasining ahamiyati, uning o'ziga xos lingvistik va psixologik jihatları tahlil qilinadi. Shuningdek, gapirish ko'nikmasining kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni hamda uni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvları yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari chet tillarni o'qitish jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: til kompetensiyasi, gapirish ko'nikmasi, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, chet tilini o'qitish.

Annotation: This article analyzes the importance of speaking skills as a component of language competencies, as well as their distinctive linguistic and psychological aspects. It also highlights the role of speaking skills in the formation of communicative competence and presents modern methodological approaches to their development. The research findings indicate the necessity of paying special attention to the development of oral communication in the process of foreign language teaching.

Keywords: language competence, speaking skills, oral communication, communicative competence, foreign language teaching.

Zamonaviy til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodik tamoyillardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til o'rganish jarayoni faqat grammatik bilim va lug'at boyligini egallash bilan cheklanmay, balki real muloqotda til birliklaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Til kompetensiyalarining asosiy turlari sifatida tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalari e'tirof etiladi.

Ushbu ko'nikmalar orasida gapirish ko'nikmasi eng murakkab va bir vaqtning o'zida eng muhim kompetensiya hisoblanadi. Chunki og'zaki nutq shaxsning muloqotga kirishish qobiliyatini, fikrini tezkor va aniq ifodalash mahoratini namoyon etadi.

Gapirish ko'nikmasi til kompetensiyalarining markaziy bo'g'ini sifatida qaraladi, chunki u til bilimlarining barcha tarkibiy elementlarini bir vaqtda qo'llashni talab qiladi. Nutq jarayonida talaba yoki o'rganuvchi leksik birliklarni, grammatik tuzilmalarni va fonetik vositalarni birlashtirib, mantiqiy va ravon nutq hosil qiladi. Shu bilan birga, gapirish jarayoni dinamik va interaktiv tabiatga ega, ya'ni u faqat o'qish yoki yozish kabi pasiv

qobiliyatni emas, balki suhbatdosh bilan real vaqt rejimida muloqot qilishni ham o'z ichiga oladi. Gapiruvchi nutqni shakllantirish jarayonida o'z fikrini tezkor tarzda tartiblaydi, uni til vositalari orqali ifodalaydi va suhbatdoshning javoblariga moslashadi. Bu esa og'zaki nutqni o'rganishning murakkabligini ko'rsatadi.

Chet tilini o'rganishda gapirish ko'nikmasi talabanning kommunikativ kompetensiyasi darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Nutq orqali o'z fikrini aniq va ravon ifodalay olish talabanning nafaqat til bilimini, balki kasbiy va akademik muhitda samarali muloqot qila olish qobiliyatini ham namoyon qiladi. Masalan, iqtisodiyot yo'nalishidagi talaba moliyaviy hisobotni ingliz tilida taqdim etayotganda, u nafaqat terminologik bilimlarni, balki nutqni mantiqiy tuzish, savollarga tezkor javob berish va auditoriya bilan interaktiv muloqot qilish ko'nikmalarini ham namoyon qiladi. Shu bilan birga, texnika yo'nalishidagi talaba laboratoriya natijalarini yoki loyiha tavsiflarini ingliz tilida tushuntirayotganda, u fonetik aniqlik, intonatsiya va kasbiy lug'atni birlashtirishi kerak bo'ladi.

Gapirish ko'nikmasining yana bir o'ziga xos jihati — spontanlik va moslashuvchanlikni talab qilishi. Talaba yoki mutaxassis o'rganilgan grammatik qoidalar va lug'at birliklarini real vaqt rejimida qo'llashi, suhbatdoshning so'zlash uslubi va vaziyatga qarab nutqini moslashtirishi lozim. Shu bois, gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda rol o'yinlari, taqdimotlar, loyiha asosida mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlarni modellashtirish kabi interfaol metodlar juda samarali hisoblanadi.

Natijada, gapirish ko'nikmasi nafaqat til bilimining natijasi, balki talabanning kasbiy va akademik faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi ko'nikma hisoblanadi. Uni puxta o'rgatish orqali talabalar nafaqat ingliz tilini egallashadi, balki kasbiy muloqotga tayyor va mustaqil fikrlay oladigan mutaxassisga aylanadi.

Gapirish ko'nikmasi bir qator o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, u boshqa til ko'nikmalaridan murakkabligi bilan ajralib turadi. Avvalo, gapirish jarayoni spontanlikni, ya'ni tezkor fikrlash va darhol javob qaytarishni talab etadi. Bu esa o'rganuvchidan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Ikkinchidan, gapirish ko'nikmasi kommunikativ vaziyatga bevosita bog'liq. Nutq mazmuni, uslubi va til birliklari suhbatdosh, mavzu va vaziyatga qarab o'zgaradi. Shuningdek, og'zaki nutqda intonatsiya, talaffuz va nutq madaniyati muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, gapirish ko'nikmasi xatolarga nisbatan sezgir bo'lib, o'rganuvchilarda psixologik to'siqlar, ya'ni nutqiy qo'rquv va ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun kommunikativ va interfaol metodlar keng qo'llaniladi. Rol o'yinlari, munozaralar,

taqdimotlar, loyiha asosida ta’lim hamda muammoli vaziyatlarni modellashtirish usullari samarali natija beradi.

Bundan tashqari, autentik materiallardan foydalanish va raqamli texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish talabalarning nutqiy faolligini oshiradi. Gapirish ko‘nikmasini baholashda esa talabaning nutq ravonligi, aniqligi va muloqotga kirisha olish qobiliyati inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, gapirish ko‘nikmasi til kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Gapirish ko‘nikmasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish chet tilini o‘rganish samaradorligini oshiradi. Zamonaviy metodik yondashuvlar asosida og‘zaki nutqni rivojlantirish raqobatbardosh va muloqotga tayyor mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. — New York: Pearson Education, 2007.
3. Nation I.S.P., Newton J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. — New York: Routledge, 2009.
4. Bygate M. Speaking. — Oxford: Oxford University Press, 1987.
5. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). — Council of Europe, 2020.
6. Jalolov J.J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
7. Harmer J. How to Teach English. — London: Longman, 2007.